



Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi

AVTOMOBILLARNI YUVISH O'Z-O'ZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHOXOBCHASINI TASHKIL ETISH LOYIHASI



TOSHKENT – 2024-YIL



UO'K _____
KBK _____
Q _____

O'quv qo'llanma "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB va "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ muassisligida tayyorlandi hamda nashr ettirildi.

Muallif

Rashidov F.I. - Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi O'qitish ishlarini tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Loyiha ishtirokchilari:

Otamurodov J.Y., Babamuhamedov A.A. – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimlari

Taqrizchi:

Rizaev N.K. - O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi, "Buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrirchi:

Dilfuza Narxujayeva – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimi

Ushbu o'quv qo'llanma Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi ijro organi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

**O'quv qo'llanma Biznesni Rivojlantirish Banki va
Kichik Biznesni Rivojlantirish Jamg'armasi tuhfasi hisoblanadi.**

ISBN _____

Mazkur o'quv qo'llanma kichik biznes tadbirkorlari uchun asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan kichik biznes tadbirkorlari o'z biznes loyihalarini tashkil etish uchun dastur sifatida foydalanishlari mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoat Rivojlanishi Tashkilot (UNIDO) talablari asosida tuzilgan bo'lib, 60411300-"Biznesni boshqarish" (Bakalavriat), 70411301-"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish" (Magistratura) hamda 08.00.15-"Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" (Doktorantura) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar va ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar ham o'quv qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanmada loyihani tashkil etish, biznes yuritish, loyihani boshqarish, loyihani menejmenti va marketingi, loyihani texnik jihatları, texnologik jihozlar va texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish rejasi, ta'minot rejasi, HR-rejasi, moliyaviy rejasi, loyihaning zararsiz ishlash nuqtasi, loyihani rentabelligi, NPV va IRR koeffitsiyentlari, loyihani o'zini-o'zi qoplash muddati masalalari yoritib berilgan.

© "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB -2024

© "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ - 2024



HURMATLI BIZNES VAKILLARI!

Ma'lumki, kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib, minglab doimiy ish o'rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to'liq shakllanib ulgurmaydi, desak, adolatdan bo'ladi.

Biz yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishini aniq belgilab oldik. Endi kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etamiz. Bunda ushbu soha vakillarini tadbirkorlikka o'qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo'yicha yaxlit eko-tizim yaratiladi.

Buning uchun, eng avvalo, "Qishloq qurilish bank"ni "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantiramiz. Ushbu yangi bankning faoliyati ham, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo'ladi. Jumladan, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashadi, o'z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo'lgan

tadbirkorlarni o'qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, hududlardagi Kichik biznes markazlarida o'qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlar asosida moliyalashtirish yo'lga qo'yiladi.

Uchinchidan, Kichik biznes markazlari ko'magida loyiha tashabbuskori va yirik davlat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalari o'rnatiladi. Bunda yangi korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotini realizatsiya qilishga Markazlar yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu korxonalarga davlat xaridlari tizimida o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni 2 yil davomida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan sotishga ruxsat beriladi.

To'rtinchidan, Kichik biznes markazlarini boshqarishga xususiy sheriklar jalb qilinadi. Ushbu tadbirkorlarga "Biznesni rivojlantirish banki"ga hissador bo'lib kirish huquqi beriladi.

Beshinchidan, yangi tizimni joriy etish bo'yicha alohida qonun ham qabul qilamiz. Bunda markaz bilan hamkorlikda kichik biznes loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar soddalashgan tartibda belgilanadi.

Maqsadimiz – bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektini "oyoqqa turg'izish", kamida 25 mingtasini o'rta korxonalarga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o'rni yaratishdan iborat.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz
tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan
uchrashuvdagi nutqidan**

18.08.2023



MUNDARIJA

Moliyaviy termin va atamalarining glossariysi	8
1. Loyiha maqsadi	10
1.1. Loyiha maqsadi	11
2. Loyiha tashabbuskori	12
2.1. Loyiha tashabbuskori	13
3. Loyiha strategiyasi	14
3.1. Loyiha strategiyasi (loyihani yaratish tarixi va shartlari)	15
4. Ko'rsatilayotgan xizmatning texnik tavsifi	16
4.1. Ko'rsatilayotgan xizmatning texnik tavsifi	17
5. Bozor va marketing konsepsiyasi	22
5.1. Marketing konsepsiyasi, sotuvlar prognozi	23
5.2. Mavjud salohiyatli mahalliy va xorijiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan kutilayotgan raqobat	25
6. Moddiy resurslar	26
6.1. Xom-ashyo, materiallar, tarkibiy qismlarning tasnifi	27
6.2. Energiya resurslari bilan ta'minlash	28

7. Obyektning joylashuvi	30
7.1. Tanlangan hududning xususiyatlari	31
7.2. Texnologiya va uskunalar	32
7.3. Qurilish-montaj ishlari	33
7.4. Xizmat ko'rsatish quvvati va yillar bo'yicha o'zlashtirish	36
8. Mehnat resurslari	38
8.1. Mehnat resurslari	39
9. Loyihani amalga oshirish	40
9.1. Loyihani amalga oshirish bosqichlari	41
9.2. Loyihani moliyalashtirish	42
9.3. Loyihani amalga oshirish uchun olinadigan kredit shartlari	43
9.4. Loyihani moliyalashtirish: moliyalashtirish mexanizmi va manbalari	44
9.5. Kredit mablag'larining (ulardan foydalanilgan taqdirda) o'zini o'zi qoplashi va o'z vaqtida qaytarilishini hisobga olgan holda iqtisodiy samaradorlikni baholash	45
10. Xulosalar	46
11. Biznes loyihaning hisob-kitob qismi	50



MOLIYAVIY TERMIN VA ATAMALARNING GLOSSARIYSI

Atama nomi	Kengaytmasi	O'zbek tilidagi ma'nosi
PV	Present Value	Kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.
NPV	Net Present Value	Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich yillar davomidagi pul oqimlarini joriy qiymati va biznesga kiritilgan sarmoyaninig farqi sifatida aniqlanadi.
IRR	Internal Rate of Return	Investitsiyalarning ichki daromadlilik darajasi (IIDD) yoki ichki rentabellik darajasi potentsial investitsiyalar rentabelligini baholash uchun moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichdir. IRR diskontlangan pul oqimlarini tahlil qilishda barcha pul oqimlarining sof joriy qiymatini (NPV) nolga tenglashtiradigan diskont stavkasi.
Diskontsiz kummulyativ saldo		Pul oqimini boshqarish va moliyaviy rejalashtirishda qo'llaniladigan o'lchovdir. Bu ko'rsatkich pul oqimlarini ma'lum bir muddatga qoldig'ini ko'rsatadi.
Diskontli kummulyativ saldo		Diskontni hisobga olgan holda jamlangan qoldiq - bu diskont stavkasini hisobga olgan holda har bir kichik davr oxirida to'plangan pulning umumiy miqdorini baholash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.





1. LOYIHA MAQSADI



1. 1. LOYIHA MAQSADI

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasini tashkil etishdan iborat. Avtomobillarga xizmat ko'rsatish daromadli sohalardan biri bo'lib kelmoqda.

Ushbu loyihani 177 mln.so'm miqdorida investitsiya (bundan 120 mln. so'm bank krediti) mablag'larini jalb qilish yo'li bilan amalga oshirish rejalashtirilgan.

Loyihaning boshlang'ich qiymati 1-jadvalda ko'rsatilgan.

Jadval 1.1. (ming so'mda)

Nomi	Summa	Loyihada ishtirok etish			
		Kredit	%	O'z mablag'lari	%
Avtomashina yuvish uskunalar to'plami (Sammoy)	155 173	120 000	77%	35 173	23%
Qurilish montaj ishlari	9 000		0%	9 000	100%
Jami asosiy vositalar	164 173	120 000	73%	44 173	27%
Aylanma mablag'	2 027		0%	2 027	100%
Investitsion davrdagi kredit foizlari	10 800		0%	10 800	100%
Jami	177 000	120 000	68%	57 000	32%

Loyiha tashabbuskorining asosiy maqsadi - avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasini tashkil etish orqali O'zbekistonda avtomobil yuvish bozorida o'z o'rniga ega bo'lish va yuqori daromad olishdan iborat.



2. LOYIHA TASHABBUSKORI



2.1. LOYIHA TASHABBUSKORI

Loyiha tashabbuskorining asosiy faoliyati - yuridik va jismoniy shaxslar uchun avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va tashkilot ustaviga muvofiq boshqa faoliyat turlari hisoblanadi.

Loyihaning asosiy xususiyati texnologik yechimning soddaligi va ishonchliligi hisoblanadi.

Loyiha tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik shaxs hisoblanadi.

Loyiha tashabbuskori xo'jalik faoliyatini o'zini-o'zi ta'minlash va o'zini-o'zi moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi bank muassasalarida milliy va chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

Loyihaning joriy faoliyatini boshqarish nafaqat menejment sohasida, balki avtomobillarga xizmat ko'rsatish sohasida tajribaga ega bo'lgan direktor tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.





3. LOYIHA STRATEGIYASI



3.1. LOYIHA STRATEGIYASI (LOYIHANI YARATISH TARIXI VA SHARTLARI)

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarning asosiy vositalaridan biri iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat siyosati hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda juda qulay investitsiya muhiti yaratildi, bu birinchi navbatda, har qanday strategik investor uchun muhim bo'lgan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

Kichik biznesni rag'batlantirishning mavjud choralari va kichik biznes loyihalariga imtiyozlar berilishi loyihani yaratishning asosiy sabablari sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Ushbu loyiha doirasida loyiha tashabbuskorining strategik maqsadi ushbu biznes loyiha uchun qulay hududda avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasini tashkil etish orqali yuqori daromad olishdir.





4. KO'RSATILAYOTGAN XIZMATNING TEXNIK TAVSIFI



4.1. KO'RSATILAYOTGAN XIZMATNING TEXNIK TAVSIFI

Keyingi vaqtlarda butun dunyo va O'zbekiston respublikasida avtomobillar soni keskin oshmoqda. Bu o'z navbatida shaharlar va aholi gavjum joylarda avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasiga bo'lgan talabni keskin oshishiga olib keldi. Loyiha tashabbuskori mana shu jihatlarni hisobga olgan holda mintaqaviy iste'molchilar ehtiyojlari uchun avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasini tashkil etishni maqsad qiladi.

Ushbu biznes daromadli va rivojlanish uchun yaxshi istiqbollarga ega. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda har bir oilaga bitta avtomobil to'g'ri keladi.

Avtomobil egalari o'z mashinalari toza va yaxshi saqlanishini xohlashadi. Bugungi kunda, qimmatbaho import qilingan avtomobillarga egalik qilish ulushi ham ortib bormoqda. Mijozlar endi chelak va latta kutargan oddiy yigitlarga mulklarini yuvishni ishonib topshirmaydilar. Ular sifatli uskunalar va maxsus tozalash vositalaridan foydalangan holda yuqori darajadagi xizmatlarni olishni xohlashadi. Shuning uchun avtomobillarni yuvish xizmatlari mijozlari oqimi o'sib bormoqda.

Avtomobillarni yuvish sohasida 2012 yildan beri ko'rsatkichlarning o'sishi kuzatilmoqda. Hozirgi vaqtda avtomobil egalarining 2/3 qismi avtomobillarini yuvishda avtomobillarni yuvish shoxobchalariga murojaat qilmoqda. Bu ko'plab yangi avtomobil yuvish shoxobchalarining ochilishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, bu soha hali ham daromadli soha ekanligi saqlanib qolinmoqda.



Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi tashkil etish - bu jadal rivojlanayotgan istiqbolli biznes: so'nggi ikki yil ichida ularning soni sezilarli darajada oshdi va bu barqaror tendensiya bo'lib qolmoqda.

Avtomashina egalari ushbu formatdagi avtomobil yuvish shoxobchalarini tobora ko'proq afzal ko'rishmoqda.

Birinchidan, vaqt tejaladi: Bunday yuvish navbat bo'lmaganda 5-20 daqiqa davom etishi mumkin.

Ikkinchidan, xizmat narxi bir necha baravar past: 50-60 ming so'm o'rniga 20-30 mingga yaqin pul to'lanadi.

Uchinchidan, 24 soatlik rejimdagi ish vaqti.

Iste'molchiga muqobil to'lov usullarini taklif etish (plastik, naqd, ilovalar orqali to'lov).

O'rtacha, bu loyiha 2 yarim yil ichida o'zini qoplaydi. Ammo ba'zi hollarda to'qqiz oydan keyin o'zini qoplaydigan holatlar bo'lishi mumkin.



Pulni tiqasiz, tugmani bosasiz

Zamonaviy avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasini tashkil qilishda klassik avtomobil yuvish shoxobchasidan farqli ravishda kimyoviy nasoslar, klapanlar va idishlar yashiringan bo'ladi. Mijoz uchun to'lovlarni amalga oshirish va xizmatlarni tanlash uchun avtomatik mashina, shuningdek, o'zi yuvishi uchun uskunalar mavjud.

Yuvish funksiyalari soni turlicha, ko'proq yoki kamroq bo'lishi mumkin, hammasi mijozlarning xohishi va to'lov qobiliyatidan kelib chiqadi.

Ammo bu yerda har doim purkagich bor. Qulaylik uchun avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchalarida bitta boksda ikkita purkagich bo'ladi: biri suv uchun, ikkinchisi kimyoviy vositalar uchun. Har bir funksiyadan foydalanish miqdorini mijoz o'zi tanlaydi. Yuvishni boshlash uchun avval qurilmaga pul kiritilishi kerak.





To'lovni 3 xil usulda amalga oshirish mumkin:

- ilova yordamida;
- mijoz kartasi bilan;
- naqd pul bilan.

Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi sutka mobaynida ishlashi maqsadga muvofiq. Bu, ayniqsa, quyosh hech kimni ayamaydigan yoz faslida, O'zbekiston sharoitiga juda mos keladi.

Bu vaqtda, mijozlarning asosiy oqimi qorong'i va salqinlashgan vaqtga to'g'ri keladi. Shuning uchun, avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchalarini yaxshi yoritish juda muhim.



5. BOZOR VA MARKETING KONSEPSIYASI



5.1. MARKETING KONSEPSIYASI, SOTUVLAR PROGNOZI

Zamonaviy dunyoda loyiha faqat iste'molchilarning talablarini e'tiborsiz qoldirmasa, muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Talablarni tadqiq qilish va mijozlarning maksimal talablarini qondirish samaradorligini oshirish uchun yangi mijozlarni qo'lga kiritishni hamda mavjud mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni, mahsulot etkazib berishni davom ettirmoqchi bo'lgan tadbirkor, ular haqiqatan ham nimani xohlashlarini va ularga nima kerakligini bilishi kerak.

Bozorni segmentatsiya qilish turli xil obyektlar bo'yicha amalga oshiriladi, ammo marketingda eng katta e'tibor iste'molchilarning xohishlariga qaratiladi. Shu bilan iste'molchilar tashkilotning marketing harakatlariga turli xil qarashlari bo'yicha bozorni segmentatsiya qilishi kerak bo'ladi.

Bozor segmenti - bu o'xshash afzalliklarga ega bo'lgan, bir qator bir xil xususiyatlarga xos va marketing takliflariga bir xil javob beradigan iste'molchilar majmuidir.

Bu loyihada iste'mol bozori segmenti respublikaning turli ko'rinishdagi avtomashina egalari hisoblanadi.

Iste'mol bozorining bu segmenti hozirgi kunda respublikamiz aholisining asosiy qatlami shaxsiy avtomobillarga ega bo'lishi bilan oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining Davlat statistika departamenti ma'lumotlariga ko'ra, aholi daromadlari o'sishda davom etmoqda.

O'zbekiston bozorida raqobatchi bo'lgan ko'plab mahalliy avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchalari




faoliyat ko'rsatmoqda. Ammo ushbu xizmat turiga yetarlicha talab mavjud va keskin raqobat kuzatilmaydi.

Loyiha tashabbuskorini ushbu xizmat ko'rsatishni tashkil etishda asosiy rag'batlantiruvchi omillari quyidagilardan iborat bo'lishi zarur:

- narx;
- sifat.

Loyihaning marketing strategiyasi ko'rsatilayotgan xizmat sifatiga bo'lgan talabni doimiy ravishda o'rganishga, bozordagi vaziyatga moslashuvchan javob berishga asoslanadi. Shuningdek, loyihaning mablag'larini loyihani kengaytirishga qayta yo'naltirish va shundan kelib chiqib, narxlar siyosati va taktikasining moslashuvchanligiga erishish orqali marketing strategiyasini takomillashtirib borishi kerak.



5.2. MAVJUD SALOHİYATLI MAHALLIY VA XORIJIY XIZMAT KO'RSATUVCHI TASHKILOTLAR TOMONIDAN KUTILAYOTGAN RAQOBAT

Nomlanishi	Manzili
"Urgench Avtomoyka" MCHJ	Urgench shahri
"Zarafshan Golden wash" MCHJ	Navoiy shahri
"Easy wash" MCHJ	Ohangaron tumani
"Buxoro Sam Moy" MCHJ	G'ijduvon tumani
"Ecoton sharq" MCHJ	Angren shahri
"Zomin Car Wash" MCHJ	Zomin tumani
"CAR WASH 007" MCHJ	Toshkent shahri
"BIG CAR WASH" MCHJ	Andijon viloyati
"TEZ YUV" MCHJ	Toshkent shahri
"MG. SAM MOY" MCHJ	Buxoro viloyati
"Green Daale wash" MCHJ	Farg'ona viloyati
"Smart Plyus" MCHJ	Andijon viloyati
"Anvar Sam Moy" MChJ	Samarqand viloyati
"Elegant car wash" QK	Toshkent viloyati

Ko'rib turganimizdek, O'zbekiston bozorida raqobatchi bo'lgan mahalliy avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchalarining soni kam. Ammo avtomobilni o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish orqali yuvishga bo'lgan talab kuchli va keskin raqobat kuzatilmaydi.



6. MODDIY RESURLAR



6.1. XOM-ASHYO, MATERIALLAR, TARKIBIY QISMLARNING TASNIFI

Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasining uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlaydigan eng mas'uliyatli jihatlardan biri – bu, uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va zarur xom-ashyo bazasi bilan uzluksiz ta'minlashdir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi bir qator xom-ashyolarni talab qiladi.

Uskunalarining to'liq quvvatda loyihadagi talabi:

Nomlanishi	O'lchov birligi	Narxi (ming so'm)	Yillik talab	Yillik qiymati (ming so'm)
Kristall vosk	kg	9	5 760	50 285
Shampun	litr	35	1 440	50 400
Suv	m ³	2,2	14 000	30 800
Jami	X	X	X	131 485

3 ta o'rinli avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasini ochish eng foydali bo'ladi, bu avtomobillarning to'planib, navbat kutib qolishini kamaytiradi. Ushbu biznesning afzalligi shundaki, ushbu faoliyatning keyingi rivojlanishi egasining minimal ishtiroki bilan amalga oshiriladi.

6.2. ENERGIYA RESURSLARI BILAN TA'MINLASH

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun ishonchli energiya ta'minoti manbai talab qilinadi.

Tanlangan maydonning barcha kommunal xizmatlari shahar kommunal xizmatlariga ulangan bo'lishi kerak.

Yillik o'rtacha iste'mol asosida elektr energiyasining zarur miqdori hisoblab chiqilgan.

Jadval 5.2.

Nomlanishi	O'lchov birligi	Yillik talab	Narxi (ming so'm)	Yillik xarajat (ming so'm)
Elektr energiyasi	kVt*Soat	28 800	0.9	25 920
Jami	X	X	X	25 920





7. OBYEKTNING JOYLASHUVI



7.1. TANLANGAN HUDUDNING XUSUSIYATLARI

Avvalambor, kerakli joyni topish kerak. U yerni ijaraga olish yoki sotib olish mumkin. Tanlangan joy loyihada talab qilinadigan zarur muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalari bilan jihozlangan bo'lishi zarur.

3 o'rinli avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi eng yaxshi tanlov hisoblanadi.

Bitta boks uchun 30 m² yer kerak bo'ladi. Quritish, artish uchun va texnik xonani ham hisobga olgan holda, 3 o'rinli o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi avtomobil yuvish shoxobchasi uchun 600 m² yer kerak bo'ladi.

Ammo biznesning rentabelligini ta'minlash uchun joy tanlashga ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak.

Yaxshi joylashuv - bu, barqaror harakatlanish kafolatlangan joy. Bu gavjum avtomagistral yoki katta yoqilg'i quyish shoxobchasi yonida, ehtimol savdo markazlari yaqinida bo'lishi mumkin.

Lekin eng muhim omil bo'lib, bu yerning markaziy suv ta'minoti, kanalizatsiya, elektr tarmog'iga ulanish imkoniyati mavjudligi hisoblanadi.

Shuningek, avtomobil yuvish shoxobchasi joylashgan joyning yer qoplamasini tanlashga to'g'ri yondashish ham juda muhimdir. Bunda teshiklar, ko'lmaklar va tepaliklar yuvilgan avtomobilning tozaligiga darhol ta'sir qilishi mumkin. Yerga tejamkor asfalt yoki beton qoplamasini yotqizishda uning sifatiga alohida e'tibor berish zarur.

Sifatsiz asfalt yoki beton qoplama juda tez, birinchi qishdayoq yaroqsiz bo'lib qolishi yoki umuman omon qolmasligi mumkin.



7.2. TEXNOLOGIYA VA USKUNALAR

Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi uchun qanday uskunar kerak?

Uskunalarni tanlash, ehtimol, yer maydoni tanlangandan keyin avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi ochishda ikkinchi eng muhim masala. Turli xil narxlar va sifatdagi uskunar ko'plab xorijiy va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan taklif etiladi. Qoidaga ko'ra, mahalliy uskunar import qilingan uskunalaridan arzonroq, ammo barchasi sotib olingan uskunar to'plamiga bog'liq.

Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi uchun uskunalarining standart ro'yxati



Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi, birinchi navbatda, barcha agregatlar o'rnatiladigan texnik xona va payvandlangan metall ramkadan iborat bo'ladi.

Zaruriy agregatlarning ro'yxati:

- yuqori bosimli qurilmalar;
- dozalash moslamasi;
- past bosimli magistral;
- past bosimli nasoslar;
- suv filtrlari;
- suv purkagich va ko'pik purkagich;
- 300 dan 800 litrgacha bo'lgan suv idishi (joylar soniga qarab);
- boshqaruv terminali;
- aylanadigan konsollar;
- purkagich ushlagichi;
- yuqori bosimli shlang to'plami;
- ichki tozalash changyutgichlari;
- boshqaruv kabellari to'plami.

7.3. QURILISH-MONTAJ ISHLARI

Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi ochish uchun qurilish-montaj ishlari quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Qurilish maydonchasi to'siqlarini o'rnatish.
2. Tuproq namunalarini olish.
3. Chuqur qazish va birlamchi cho'kma quduqlarini o'rnatish.
4. Qum va shag'al yotqizish.
5. Kommunikatsiya tarmoqlari va quvurlarni o'rnatish.



6. Suv tozalash inshootlarini o'rnatish.
 7. Asosiy beton (asfalt) qoplamani yotqizish va uning sirtiga ishlov berish;
 8. Bokslarning metall konstruksiyasining ramkalarini o'rnatish va texnik xonani qurish.
 9. Elektr, tom yopish va reklama inshootlarini o'rnatish.
 10. Boks uskunalari o'rnatish.
 11. Bokslar orasini to'siqlar bilan ajratish va ustini shiypon (навес) bilan yopish;
 12. Hududni obodonlashtirish (belgilar va yo'l belgilarini o'rnatish, yoritish jihozlari, video kuzatuv tizimlarini o'rnatish, maysazorlar, gulzorlarni tartibga solish).
- Bokslardagi tom ultrabinafsha nurlanishidan himoyalangan qalinligi kamida 10 millimetr bo'lgan yuqori quvvatli, polikarbonatdan tayyorlanishi mumkin. To'siq sifatida ishonchli himoyani ta'minlaydigan va asl ko'rinishini uzoq vaqt saqlab



qoladigan rangli shisha yoki xuddi shunday uyali polikarbonatdan foydalanish mumkin.

Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi dizayni

Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi yorqin va original dizayni har doim qo'shimcha e'tiborni tortadi va haydovchilar tomonidan eslab qolinadi. Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi dizaynini yaratishda qanday strategiyani tanlash kerak? Bir tomondan, shoxobchasi atrofdagi landshaftga mos kelishi va atrofdagi binolarning uslubi bilan uyg'unlashishi kerak, boshqa tomondan, u ularning fonidan bemalol ajralib turishi kerak.

E'tiborni jalb qilish uchun avtomobillarni yuvish shoxobchasi - samolyot, kosmik kema, formula 1 pitstoplari yoki boshqa unutilmas dizayn sifatida loyihalashtirilishi mumkin.

7.4. XIZMAT KO'RSATISH QUVVATI VA YILLAR BO'YICHA O'ZLASHTIRISH

Loyihaning xizmat ko'rsatish dasturi avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasining xizmat ko'rsatish quvvati va ishlash rejimidan hisoblab chiqilgan.

Shoxobchaning to'liq quvvat bilan ishlash:

Nomlanishi	O'lchov birligi	Maksimal xizmat ko'rsatishdagi soni	Sotish narxi (ming so'm)	Summasi (ming so'm)
Avtomobillarni yuvish	dona	14 400	15	216 000



Loyiha tashabbuskori loyihani amalga oshirishning birinchi yilida 85% dan ishlab chiqarish quvvatlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirishni va loyihani amalga oshirishning 5-yiliga kelib ishlab chiqarish quvvatini 100% gacha yetkazishni rejalashtirishi zarur.

Jadval 7.2.

Quvvatni yillar bo'yicha o'zlashtirish koeffitsiyenti

	1 yil	2 yil	3 yil	4 yil	5 yil
Quvvat o'zlashtirilishi %da	85%	90%	95%	100%	100%





8. MEHNAT RESURSLARI



8.1. MEHNAT RESURSLARI

Loyiha tashabbuskori har bir xodimning loyihaning muvaffaqiyatiga to'liq hissa qo'shishi va shu bilan birga o'zining professional va shaxsiy o'sishi va ijtimoiy himoyalangan bo'lishi uchun barcha zarur amallarni bajarishi lozim. Mehnat haqi adolatli bo'lishiga va xodim hamda loyiha tashabbuskori o'rtasidagi munosabatlarning sheriklik tamoyillarini aks ettirishiga intilishi kerak.

(ming so'mda)

Xodimlar	Soni	Ish haqi	Oylik mehnatga haq to'lash	YalT(12%)	Jami
1. Boshqaruv va adminstratsiya					
Bosh direktor	1	3 000	3 000	360	3 360
Jami	1		3 000	360	3 360
2. Avtomobillarni yuvish o'z o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi					
Mexanik	1	2 500	2 500	300	2 800
Jami	1		2 500	300	2 800
JAMI PERSONAL	2		5 500	660	6 160
JAMI YILIGA			66 000	7 920	73 920



9. LOYIHANI AMALGA OSHIRISH



9.1. LOYIHANI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

Loyihani samarali amalga oshirish uchun loyiha tashabbuskori quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi:

1. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish;
2. Loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini, moliyaviy hisob-kitoblarini va marketing strategiyalarini ishlab chiqish;
3. Loyiha tashabbuskori yuridik shaxs sifatida tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
4. Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasiga uskunalar yetkazib beruvchi tashkilotlar va qo'shimcha xom-ashyolar yetkazib beruvchi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;
5. Kredit tashkilotlari bilan muzokaralar o'tkazish va moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
6. Loyihani moliyalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish va bankka taqdim etish;
7. Bank tomonidan moliyalashtirishning ochilishi;
8. Avtomobillarni yuvish o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchasi qurilishini yakunlash;
9. Barcha kerakli uskuna va agregatlarni o'rnatish;
10. Xizmat ko'rsatishni boshlash.





9.2. LOYIHANI MOLİYALASHTIRISH

Loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqt (uni moliyalashtirishdan tortib, kredit va foizlarni to'lash bilan amalda yakunlashgacha) 5 yilni tashkil etadi.

Kredit mablag'larini jalb qilish bo'yicha tashkiliy tadbirlarni o'tkazish, shartnomalarni rasmiylashtirish uchun yana 1 oy kerak bo'ladi.

Shunday qilib, loyihaning umumiy davomiyligi 5 yilni tashkil etadi, bu yerda birinchi 6 oy investitsiya davri hisoblanadi.

Ushbu loyihani o'z mablag'lari va jalb qilinadigan kredit mablag'lari hisobidan moliyalashtirish zarur.

Loyiha qiymati (byudjet) 177 mln. so'mni (shundan 120 mln. so'mi kredit mablag'lari hisobidan) tashkil etadi.

Loyiha qiymati, shuningdek, butun loyiha bo'yicha xarajatlar tarkibi ilovalarda keltirilgan.

Tarkibiy qismlar	Summa (ming so'm)	Tuzulishi
O'z mablag'i		
Asosiy vositalar	44 173	25%
Moliyaviy xarajatlar	10 800	6%
Aylanma kapital	2 027	1%
Jami o'z mablag'lari	57 000	32%
KREDIT RESURSLARI		
Kredit summasi	120 000	68%
Jami moliyalashtirish manbalari	177 000	100%

